

HOMILADOR AYOLLAR VA ULARNING HOMILASI (BOLASI)NI SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. SUG'URTA OBYEKTI

Sug'urtalangan shaxs (homilador ayol)ning tug'ish davridagi tug'ish jarayonida hayoti va sog'lig'iga hamda uning homilasi (bolasi) hayotiga bog'liq qonunlarga zid kelmaydigan moddiy qiziqishlari Sug'urta obyektini hisoblanadi.

II. SUG'URTA HODISASI

Sug'urtalangan shaxsning tug'ish davrida tan jarohati olishi va uning va/yoki homilasi (bolasi) ning vafot etishiga olib keluvchi Sug'urta shartnomasi (polisi) da belgilangan hodisa.

Sug'urtalangan shaxs - sug'urta shartnomasini tuzilishi vaqtida 18 yoshga to'lgan va 40 yoshdan oshmagan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, o'zining va homilasi (bolasi)ning sog'lig'i va hayoti sug'urtaviy himoyaga olingan shaxs;

Tug'ish davri - homiladorlikni 30-haftasidan 42 haftasini qamrab olgan muddat.

Homiladorlikning shartli ravishdagi muddati – Mazkur sug'urta turi bo'yicha olinadigan muddat **42 hafta**.

Sug'urta javobgarligi yuzaga keladigan muddat - - homiladorlikning 30-haftasidan 42-haftasiga qadar muddat.

2.1. Tug'ish jarayonida quyidagi oqibatlarga olib kelgan hodisalar Sug'urta hodisasi hisoblanadi:

- qovuq usti, tos-qov suyaklari birlashgan bo'g'imi yoki dumg'aza-quymich birlashmasining uzilishi;

- tug'ish paytida jarrohlik aralashuvi (bolaga akusherlik qisqichi qo'yilishi, vakumda olinishi, epiziotomiya, perineotomiya va boshqalar);

- qornini kesish (kesereva secheniye) agarda birinchi marotaba tabiiy tug'ishning imkoniyatsizligi natijasida bo'layotgan bo'lsa (nisbiy yoki absolyut holatlarda);

- bachadonni olib tashlanishi;

- bolaning o'lik tug'ilishi, tug'ish davrida yoki tug'ruqxonadan chiqmasdan turib vafot etishi;

- tug'ish davrida yoki jarayonida Sug'urtalangan shaxsning tan jarohati olishi va uning va/yoki homilasi (bolasi)ning vafot etishi;

- ikki va undan ortiq bola tug'ilib, ulardan biri o'lik tug'ilishi yoki tug'ruqxonadan chiqmay turib vafot etishi;

- tug'adigan yoki tug'ayotgan ayolning tug'ruqxonada patalogik, anafilaktik shokdan vafot etishi;

- homiladorlikning 30-haftasidan boshlab tug'ish jarayonigacha bo'lgan davrda Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'i og'irlashib, natijada homilani saqlab qolish onaning xayoti uchun xavfli deb topilganda homilani majburiy olib tashlanishi holati;

- uchinchi shaxslarning aybi bilan Sug'urtalangan shaxsning jismoniy shikast yetkazilishi natijasida Sug'urtalangan shaxs va/yoki uning xomilasining vafot etishi;

- Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ning maxsus tibbiy yordam transport vositasida tug'ish davrida tan jarohati olishi yoki Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ning va/yoki uning homilasi (bolasi)ning vafot etishi.

III. QUYIDAGILAR SUG'URTA HODISASI HISOBLANMAYDI

- Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) ataylab qilgan hatti-harakatlari natijasida tan jarohati olsa yoki vafot etsa, mazkur holda qasddan sodir qilingan belgilari aniqlansa;

- Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) qasddan o'zining tana a'zolariga tan jarohati yetkazib, uning oqibatida o'zi va/yoki homilasi vafot etsa;

- qornini kesish (kesereva secheniye) agarda ikkinchi va undan ortiq marotaba amalga oshirilayotgan bo'lsa yoki homilador ayolning o'z tashabbusi bilan amalga oshirilsa;

- Sug'urtalangan shaxs tug'ruqxonaga yetib bormasdan uyda yoki yo'lda tug'ib, tan jarohati olsa yoki uning bolasi vafot etsa;

- sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kundan tug'ish davrigacha bo'lgan davrda Sug'urtalangan shaxsning tan jarohati olishi va uning va/yoki homilasi (bolasi)ning vafot etishi;

- sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kundan tug'ish davrigacha bo'lgan davrda sog'lig'i yaxshi bo'la turib, homiladan o'z ixtiyori bilan voz kechish, sun'iy yoki boshqa qonunga zid yo'llar bilan homilani olib tashlanishi, oqibatda Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'i og'irlashishi yoki vafot etishi;
- sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli homilasi (bolasi)ning mayib bo'lishi yoki vafot etishi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lganda.

Eslatma: Kasallikni aniqlash, davolash va oldini olish tadbirlari (dori yuborish) sug'urta shartnomasi amal qilayotgan davrda yuz bergan sug'urta hodisasi tufayli olib borilgan davolash bilan bog'liq bo'lmasa yoki tibbiyot xodimlarining aybi bilan bo'lsa ham ularning salbiy oqibatlari uchun Sug'urta puli to'lanmaydi.

III. SUG'URTA SHARTNOMASINI (POLISINI) TUZISH TARTIBI VA MUDDATI

3.1. Homilador ayol homiladorlik tufayli davolash muassasasida ro'yxatga olingandan so'ng, homilasi **17 haftaga to'lgunga qadar** shartnoma tuzish mumkin. Homilasi 17 haftadan oshgan bo'lsa sug'urta shartnomasi tuzilmaydi.

Sug'urta shartnomasi (polisi) tuzilishi davrida Sug'urtalangan shaxsning homilasi 17 haftadan oshgan bo'lsa tuzilgan sug'urta shartnomasi (polisi) haqiqiy deb hisoblanmaydi va Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchining talabiga asosan qaytarib berilishi mumkin.

Homilani qornini kesish (kesereva secheniya) yo'li orqali olish xavfi bo'lgan va birinchi homilasi qornini kesish (kesereva secheniya) yo'li orqali olingan bo'lsa hamda homilador ayol tug'ruqxonaga tug'ishga yetib borgan vaqtda, u bilan Sug'urta shartnomasi tuzilmaydi.

Ko'rsatilgan shartlarni buzib tuzilgan Sug'urta shartnomalari (polisi) tuzilgan kundan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ruhiy yoki og'ir nerv kasalligi, tutqanoq, ko'zi ojizlik, karlik, falaj kasalligining har xil turlari bilan kasallangan 1-guruh nogiron ayollar Sug'urtalangan shaxs sifatida sug'urtalanayotgan bo'lsa bunday Sug'urta shartnomalari (polislari) tuzilmaydi, ushbu shaxslar tomonidan elektron tarzda sug'urta polislari olingan taqdirda mazkur polislar olingan vaqtdan boshlab haqiqiy hisoblanmaydi.

3.2. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta pulini olish uchun hohlagan shaxsni Naf oluvchi etib tayinlashga xaqli.

Naf oluvchi Sug'urta shartnomasi bo'yicha bironta majburiyatni bajarganidan yoki Sug'urta pulini to'lash to'g'risida Sug'urtalovchiga talab qo'rganidan keyin, u boshqa shaxs bilan almashtirilishi mumkin emas.

3.3. Sug'urta shartnomasi (polisi)ning amal qilish muddati sug'urta polisi berilgan kundan boshlab 10 oydan oshmasligi lozim.

3.4. Sug'urta polisi va javobgarligini amal qilish muddatini aniqlash:

Sug'urta polisining amal qilish muddati homilador ayolni nazoratga olgan shifokor (ginekolog) tomonidan homilani necha haftaligi ko'rsatib berilgan ma'lumotnomadagi sanadan boshlanib homiladorlikning shartli ravishdagi muddatigacha (42 - hafta) davom etadi.

Masalan: homilador ayol sug'urta polisi olish uchun 2023-yil 1-may kuni elektron ariza kiritganda shifokor ma'lumotnomasida homila 10 haftalik deb ko'rsatilgan bo'lsa, sug'urta polisining boshlanishi sug'urta mukofoti to'langan kun, tugash muddati kuni sifatida 2023 yil 1 may kuniga 224 kun $(42-10 = 32 \text{ hafta}, 32 \text{ hafta} * 7 \text{ kun} = 224 \text{ kun})$ qo'shiladi.

3.5. Sug'urta javobgarligi vuzaga keladigan muddat sifatida:

Boshlanishi – 2023 yil 1 may kuniga 140 kun $(30-10 = 20 \text{ hafta}, 20 \text{ hafta} * 7 \text{ kun} = 140 \text{ kun})$ qo'shiladi.

Tugashi – 2023 yil 1 may kuniga 224 kun $(42-10 = 32 \text{ hafta}, 32 \text{ hafta} * 7 \text{ kun} = 224 \text{ kun})$ qo'shiladi.

IV. SUG'URTA PULINI OLISH UCHUN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR

4.1. Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtdan 20 (yigirma) kundan kechikmay Sug'urtalovchiga yozma ravishda xabar berishi lozim.

4.2. Sug'urtalovchiga Sug'urta pulini olish uchun ariza, Sug'urta polisi va Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi davolash (tug'dirish) muassasasining ma'lumotnomasini taqdim qilishi shart.

4.3. Naf oluvchi Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ning vafoti tufayli ariza bilan birga Sug'urta polisini va Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan beriladigan o'lim

to'g'risidagi guvohnomani notarial idoradan tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi. Vorislari esa ariza bilan birga Sug'urta polisini va Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan berilgan o'limi to'g'risidagi guvohnomani notarial idoradan tasdiqlangan nusxasini hamda vorislik huquqi to'g'risida notarial idora bergan guvohnomani taqdim etadi.

V. TO'LOV MIQDORI VA MUDDATI

5.1. Sug'urtalangan shaxsning tug'ish davrida uning va homila (bola)ning sog'lig'i hamda hayotiga zarar yetishi natijasida sug'urta puli miqdori xar bir holat uchun quyidagicha aniqlanadi (Sug'urta puliga nisbatan foizda):

- qovuq usti, tos-qov suyaklari birlashgan bo'g'im yoki dumg'aza-quymich birlashmasining uzilishiga - **20 foiz**;

- tug'ish paytida jarrohlik aralashuvi (bolaga akusherlik qisqichi qo'yilishi, vakumda olinishi, epiziotomiya, perineotomiya va boshqalar)ga - **10 foiz**;

- qornini kesish (kesereva secheniye), agarda birinchi marotaba tabiiy tug'ishning imkoniyatsizligi natijasida bo'layotgan bo'lsa (nisbiy yoki absolyut holatlarda) - **15 foiz**;

- bachadonni olib tashlanishiga - **30 foiz**;

- bola o'lik tug'ilganda, tug'ish davrida yoki tug'ruqxonadan chiqmasdan turib vafot etganda - **50 foiz**;

- tug'ish davrida onaning vafot etishiga - **100 foiz**;

- tug'ish jarayonida onaning bola bilan birga vafot etishiga - **100 foiz**;

- ikki va undan ortiq bola tug'ilib, ulardan biri o'lik tug'ilganda yoki tug'ruqxonadan chiqmay turib vafot etishiga - **50 foiz** (bunda tug'ilgan bolalarning nechitasi vafot etishidan qat'iy nazar to'lanadigan sug'urta pulining yuqori miqdori 50 foizdan oshmaydi);

- tug'adigan yoki tug'ayotgan ayolning tug'ruqxonada patalogik, anafilaktik shokdan vafot etishiga - **100 foiz**;

- homiladorlikning 30-haftasidan boshlab tug'ish jarayonigacha bo'lgan davrda Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'i og'irlashib, natijada homilani saqlab qolish onaning xayoti uchun xavfli deb topilganda, homilani majburiy olib tashlanish holatiga- **50 foiz**.

5.2. Sug'urtalovchi Sug'urtalangan shaxs (Sug'urta qildiruvchi)dan Sug'urta puli to'lash to'g'risidagi arizani olgandan keyin sug'urta pulini aniqlash uchun talab etiladigan hujjatlar yetarli bo'lmaganda yozma ravishda qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi lozim.

5.3. Sug'urtalovchi Sug'urtalangan shaxsning yoki xomilaning vafoti munosabati bilan Sug'urta puli to'lash to'g'risidagi arizani qabul qilgandan so'ng mavjud hujjatlarni o'rganadi.

Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi Sug'urta pulini to'lab berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilib, Sug'urta polisini taqdim qilmasa, Sug'urta shartnomasi haqiqatdan ham tuzilganligiga aniqlik kiritganidan so'ng ariza ko'rib chiqiladi.

5.4. Sug'urta hodisasi tufayli to'lanadigan Sug'urta pulini Sug'urtalovchi barcha kerakli hujjatlar taqdim qilingach, sug'urta hodisasini tan olinganligi to'g'risida dalolatnoma tuzilgandan so'ng 5 (besh) kun ichida Sug'urtalangan shaxs (Naf oluvchi, Sug'urta qildiruvchi, huquqiy voris)ning bankdagi hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi.

5.5. Sug'urta hodisasi bo'yicha to'lanadigan umumiy to'lov Sug'urta pulidan oshmasligi kerak.

5.6. Sug'urta qildiruvchining shartnomani (polisni) bekor qilish bo'yicha yozma murojaatiga ko'ra, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga shartnomaning o'tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sug'urtalovchining sug'urta ishini yuritish bilan bog'liq bo'lgan sug'urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sug'urta mukofotidan chegirilib qolinadi.

VI. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) Sug'urtalangan ayolga Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng 5 kun muddatdan kechikmay Sug'urta polisini berish;

b) Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalangan shaxs (Naf oluvchiga, Sug'urta qildiruvchiga) sug'urta qoidalarida belgilangan muddatda va tartibda Sug'urta pulini to'lashni ko'rib chiqish;

d) Sug'urta qildiruvchiga nisbatan maxfiylikni ta'minlash;

e) Sug'urta puli to'lovi rad etilganda Sug'urta qildiruvchiga yozma ravishda xabar qilish;

f) Sug'urta qildiruvchiga sug'urtaga oid maslahatlar berish.

6.2. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) Naf oluvchi Sug'urta pulini to'lashni talab qilganida Sug'urtalovchi undan, Sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni, shu bilan birga Sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'lgan lekin u bajarmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilish. Ilgari bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik oqibatlari Sug'urta xavfi Sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda Sug'urta pulini olish uchun Sug'urta qildiruvchi tomonidan tayinlangan shaxsni zimmasida bo'ladi;

b) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta (polisi) shartnomasi tuzish vaqtida Sug'urtalovchiga bila turib (sog'liq va Sug'urta xavfiga oid) yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi shartnomani bir tomonlama bekor qilish to'g'risida Sug'urta qildiruvchiga yozma habar berishi;

d) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishga yoki qo'shimcha Sug'urta mukofotini to'lashga qarshi bo'lsa, Sug'urtalovchi fuqarolik qonunlarida ko'zda tutilgan tartibda Sug'urta shartnomasini bekor qilish;

e) Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalanayotgan shaxsning sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash uchun shifokor-ekspertni jalb etish;

f) Sug'urtalovchi Sug'urtalangan shaxsning sug'urta hodisasi bo'yicha bildirilgan da'vosini ko'rib chiqish va ushbu holat sug'urta hodisasi deb tan olinmasa o'rnatilgan tartibda da'voni rad etish;

g) Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan Sug'urta qildiruvchiga to'langan sug'urta puli doirasida ushbu mablag'ni qoplash (undirish) bo'yicha sudga da'vo kiritish.

7.3. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

a) Sug'urta (polisi) shartnomasini tuzayotganda Naf oluvchini tanlash;

b) Sug'urta hodisasi ro'y berganda uning foydasiga tuzilgan Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasiga tegishli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish;

d) Sug'urta (polisi) shartnomasini rasmiylashtirilishida sug'urta polisida belgilangan miqdordagi Sug'urta mukofotini to'lash;

e) Sug'urta shartnomasi rasmiylashtirilishi vaqtida Sug'urtalovchiga berilgan ma'lumotnomada keltirilgan holatdan boshqa holatlar Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida aniqlangan taqdirda va ushbu holatlar Sug'urta xavfi ortishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgani bois Sug'urtalovchiga darhol xabar qilish;

f) Sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtdan 20 (yigirma) kundan kechikmay Sug'urtalovchiga yozma ravishda ariza berish;

g) Sug'urta (polisi) shartnomasining shartlari o'zgarganda Sug'urtalangan shaxsga ma'lum qilish;

h) Sug'urta shartnomasining shartlarini maxfiylikini saqlash.

7.4. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

a) Sug'urta (polisi) shartnomasi bo'yicha Sug'urta pulini olish uchun hohlagan shaxsni Naf oluvchi etib tayinlash;

b) Sug'urta (polisi) shartnomasi amal qilish davrida Naf oluvchini boshqa shaxsga, bu haqda Sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, almashtirish;

d) Sug'urtalovchidan sug'urtaga doir maslahatlar olish;